

**MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA
TARBIYACHILATNING IJODIY QOBILYAYLARINI
SHAKILLANTIRISH YO'LLARI**

*Denov Tadbirkorlik pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti "Maktabgacha ta'lim"
yo'nalishi. 1mt 23 guruh talabalari*

***Ishnayeva Xurshida Erkin qizi,
Hikmatullayeva Aziza***

Anotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalalari. Ijodiy qobiliyatning mazmuni va mohiyati, tarbiyachining kasbiy faoliyatida ijodkorlikning o'рни, hamda uni rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijodiy muhit yaratish, o'z ustida ishlash va jamoaviy ijodiy faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati. Tadqiqot natijalari tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini yaxshilash hamda bolalarda ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы формирования творческих способностей воспитателей дошкольных образовательных организаций. Анализируются содержание и сущность творческих способностей, роль креативности в профессиональной деятельности воспитателя и эффективные пути её развития. Также в статье рассматривается значение инновационных педагогических технологий, создания творческой среды, работы над собой и развития коллективной творческой деятельности. Результаты исследования способствуют повышению профессионального мастерства воспитателей, улучшению качества образовательного процесса, формированию творческих способностей у детей.*

Abstract: *This article discusses the issues of forming the creative abilities of educators in preschool educational organizations. The content and essence of creative abilities, the role of creativity in the professional activity of an educator, and effective ways of its development are analyzed. The article also discusses the importance of innovative pedagogical technologies, creating a creative environment, working on oneself and developing collective creative activity. The results of the research serve to improve the professional skills of educators, improve the quality of the educational process, and form creativity in children.*

Kalit soʻzlar: *maktabgacha taʼlim, tarbiyachi, ijodkorlik, ijodiy qobiliyat, innovatsion texnologiyalar, ijodiy muhit, pedagogik faoliyat, shaxsiy rivojlanish, ijodiy fikrlash, taʼlim sifati.*

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, yangicha tafakkurli, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxslarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha taʼlim tizimida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha yosh davrida bola shaxsining asosiy psixologik, intellektual va ijodiy qobiliyatlari shakllanadi. Ushbu jarayonning samarali kechishi esa, avvalo, tarbiyachining kasbiy va ijodiy mahoratiga bogʻliq. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyachi faqatgina bilim beruvchi emas, balki bolani oʻylashga, izlanishga, yangilik yaratishga undovchi shaxs sifatida namoyon boʻladi. Shu sababli tarbiyachining ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvni shakllantirish hozirgi zamon taʼlim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir.

“Ijodkorlik” tushunchasi lotincha “creatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yaratish”, “yangilik kiritish” maʼnolarini anglatadi. Ijodiy qobiliyat — bu shaxsning yangi, original gʻoyalar yaratish, noodatiy fikr yuritish, mavjud muammolarga yangi yondashuv topish qobiliyatidir. Pedagogik jarayonda ijodkorlik — bu tarbiyachining taʼlim-tarbiya jarayonida yangicha metodlar, oʻyin

texnologiyalari va interaktiv usullardan foydalana olishi bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'limdagi ijodkor tarbiyachi: bolalarda mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi; yangi o'yin shakllari va mashg'ulot turlarini ishlab chiqadi; estetik didni rivojlantirish uchun san'at, musiqa, tasviriyl faoliyatdan samarali foydalanadi; o'z faoliyatida innovatsion metodlarni qo'llaydi. Ijodiy qobiliyat nafaqat tabiiyl iste'dod mahsuli, balki uzluksiz o'rganish va izlanish jarayonida shakllanadigan fazilatdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolani keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlovchi birinchi bosqich hisoblanadi. Shu bois bu jarayonda tarbiyachining roli nihoyatda katta. Tarbiyachining ijodiy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni shunchalik qiziqarli va samarali bo'ladi. Ijodkor tarbiyachilar quyidagi natijalarga erishadi: bolalarda tafakkur, tasavvur, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi; bolalarda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va mustaqillik tuyg'usi shakllanadi; har bir bola o'z ijodiy imkoniyatlarini sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Bugungi kunda "Ilk qadam" davlat dasturida ham tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviyl pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish alohida vazifa sifatida belgilangan.

Ijodiy qobiliyatni shakllantirishning asosiy yo'llari

*Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish

*Zamonaviyl texnologiyalar tarbiyachining ijodkorlik faoliyatini kengaytiradi.

Masalan:

*Montessori metodikasi — bolaga mustaqillik va erkin tanlov imkonini beradi;

*STEAM yondashuvi — ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali ijodkor fikrlashni rivojlantiradi;

*Reggio Emilia yondashuvi — bola shaxsini "kashf qiluvchi", "tadqiqotchi" sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu texnologiyalar tarbiyachidan yangicha yondashuv, vizual vositalardan, tajribalardan, interfaol o'yinlardan keng

foydalanishni talab qiladi. Tarbiyachilar o'rtasida hamkorlik asosida ijodiy loyihalar yaratish ularning o'zaro tajriba almashishiga yordam beradi. Masalan, musiqiy sahna ko'rinishlari, milliy qadriyatlar asosidagi bayram tadbirlari, interfaol o'yinlar yoki teatrlashtirilgan mashg'ulotlar shular jumlasidandir.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish — zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki ijodkor tarbiyachi bolada mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch, qiziqish va yangilikka intilish tuyg'usini shakllantiradi. Ijodkorlik — bu tug'ma emas, balki uzluksiz o'rganish, izlanish va tajriba orttirish jarayonida rivojlanadigan fazilatdir. Shuning uchun har bir tarbiyachi: doimiy ravishda yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish ijodiy muhitda faol ishtirok etishi; o'z ish faoliyatiga yangilik kiritishdan cho'chimasligi kerak. Aynan shundagina maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqori samarali, ijodiy, zamonaviy tafakkurga ega pedagoglar shakllanadi va kelajak avlodning barkamol rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent: MTT vazirligi, 2021.
3. Karimova R. "Maktabgacha ta'limda innovatsion metodlar". – Toshkent, 2022.
4. Zunnunova G. "Tarbiyachining ijodiy faoliyatini rivojlantirish yo'llari". – "Pedagogika" jurnali, 2023.
5. Vygotskiy L.S. "Ijodiy tafakkur psixologiyasi". – Moskva, 1999 yil.